



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

“Yilning eng yaxshi o‘zbek tili o‘qituvchisi” respublika tanlovini
o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoni talablariga muvofiq tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining 2023-yil 18-sentabrdagi “Yilning eng yaxshi o‘zbek tili o‘qituvchisi” respublika tanlovini o‘tkazish haqida” 37-q/q va 11-38 “s”-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. “Yilning eng yaxshi o‘zbek tili o‘qituvchisi” tanlovi (keyingi o‘rinlarda – tanlov) respublika bosqichi 2023-yilning 15-19-oktabr kunlari Toshkent shahrida yuqori saviyada o‘tkazilsin.

2. “Yilning eng yaxshi o‘zbek tili o‘qituvchisi” respublika tanlovini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar smetasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin va sarf-xarajatlar vazirlikning 2023-yil uchun markazlashgan tadbirlarning xarajatlar smetasi mablag‘lari doirasida amalga oshirilsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari tanlovning respublika bosqichida ishtirok etadigan o‘qituvchilarning xavfsizligini ta’minlagan holda Toshkent shahriga kelib-ketishlarini ta’minlasin.

4. Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (N.Xusanboyeva)ga “Yilning eng yaxshi o‘zbek tili o‘qituvchisi” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha respublika tashkiliy qo‘mitasi bilan kelishgan holda:

tanlov ishtirokchilarini Toshkent shahridagi madaniy-ma’rifiy muassasalar va tarixiy obidalarga tashriflarini uyushtirishda transport vositalari bilan ta’minlash; tanlovning respublika bosqichi g‘oliblarini taqdirlash marosimi dasturini ishlab chiqish vazifalari yuklatilsin.

5. Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (J.Mannonov)ga mazkur buyruq bilan tasdiqlangan sarf-xarajatlar smetasiga asosan davlat xaridlarini belgilangan tartibda amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

6. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) tuzilgan shartnomalarga muvofiq o‘rnatilgan tartibda to‘lovlarni o‘tkazilishini ta’minlasin.

7. Axborot xizmati (D.Sobirova) tanlovning respublika bosqichini ommaviy axborot vositalarida va vazirlikning rasmiy veb-saytida yoritilishini amalga oshirsin.

8. Vazir maslahatchisi (N.Mamaraimova) tanlov yakunidan so‘ng 5 kun muddatda tadbir bo‘yicha hisobotni vazirlikning Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limiga topshirsin.

9. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o‘rinbosari D.Kenjayeov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil “ 22 ” - sentabr,
352 - son